

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

4-maxsus  
son (5-jild)

**2025**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*№ 5/4 (5) - 2025*

## **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

## **ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

#### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

#### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

*22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

## **OAK Ro‘yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

### **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

### **Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Abduraxmonov Mirsaid Muzaffarovich</i> O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING HUQUQIY ASOSLARI YARATILISHI .....	10-16
<i>Atamuratova Dilafuz</i> TURKISTON VAQTLI MATBUOTI TARIXI: XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI .....	17-22
<i>Abdushukurova Iqbol</i> TARIXIY KVESTLARNI TASHKIL QILISH USULLARI .....	23-27
<i>Redjapov Doniyor</i> JANUBIY OROLBO‘YI AHOLISI HARBIY SAN‘ATINING TARIXIY ILDIZLARI XUSUSIDA .....	28-31
<i>Sultanov Samandar</i> QUYI ZARAFSHON VODIYSI GEOGRAFIK XUSUSIYATI: PALEOEKOLOGIYASI JARAYONLARIGA DOIR BA‘ZI CHIZGILAR .....	32-35
<i>Matyakubov G‘ayrat</i> XORAZM VOHASIDA IJTIMOYIY-IQTISODIY VA ETNIK-MADANIY MUNOSABATLAR RIVOJLANISHIGA DOIR BA‘ZI CHIZGILAR (XIII-XV ASRLAR).....	36-39
<i>Eshkuvatov Muhammad Keldiyor o‘g‘li</i> MARKAZIY OSIYO BOZORLARI (XIX ASR YEVROPALIK SAYYOHLAR NIGOHIDA) .....	40-45
<i>G‘aniyev Mirjalol</i> QADIMG‘I TURKlarda IJTIMOYIY HAYOT .....	46-51

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

<i>Abdullaev Altinbek</i> KORXONALARDA UN MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH LOYIHASI BOSH BYUDJETINING METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH .....	52-66
<i>Latipov Ashur Ali, Umarova Muzira</i> INVESTITSIYA STRATEGIYASI VA UNING MENEJMENTDAGI O‘RNI .....	67-71
<i>Rustamova Sayyora</i> STRATEGIK BOSHQARUV-RAQOBAT USTUNLIGINING ASOSI .....	72-77
<i>Буранова Лола, Арипова Азиза</i> РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТА ДОСУДЕБНОГО РАЗРЕШЕНИЯ НАЛОГОВЫХ СПОРОВ .....	78-87
<i>Maxkamov Navruzjon Tuxtamishovich</i> KORXONALAR BOSHQARUVIDA “YASHIL” IQTISODIYOT TAMOIYLLARINI QO‘LLASH AHAMIYATI .....	88-94

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

<i>Saidov Hakim G‘afurovich</i> TALABALARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH – DAVLAT SIYOSATI DARAJASIDA .....	95-98
<i>Kadirova Ziyoda</i> ILMIY IJODNING IJTIMOYIY, MADANIY VA TARIXIY O‘LCHAMLARI .....	99-104

<i>Muzaffarov Navruzxon Baxronovich</i> SHAYX XUDOYDOD VALINING INSON VA OLAM MUNOSABATLARIGA OID QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI .....	105-108
<i>Raxmatova Mexrinoz Majitovna</i> YOSHLAR MA'NAVIY SALOHİYATINI YUKSALTIRISH BORASIDAGI DAVLAT SIYOSATINING NAZARIY-HUQUQIY VA FALSAFIY ASOSLARI .....	109-113
<i>Karimova Lola Muzafarovna</i> IJTIMOIY MOBILLIK NAZARIYASIGA YONDASHUVLARNING TARIXIY TAHLILI .....	114-119
<i>Jumayeva Shahlo Suyunovna</i> JAN POL SARTRNING EKZISTENSIAL FALSAFASIDA ERKINLIK VA YOLG'IZLIK MASALALARINI YORITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	120-125
<i>Djurayev G'olib</i> JAN POL SARTR VA ALBER KAMYU FALSAFIY QARARSHLARIDA ERKINLIK MASALASI .....	126-130
<i>Rajabov O'tkirjon</i> KONSENSUS MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA "TEMUR TUZUKLARI" ASARINING AHAMIYATI .....	131-134
<i>Bekmuhammadova Sabrina Ismoil qizi</i> GENDER ZO'RAVONLIGIGA QARSHI KURASH CHORALARI .....	135-139
<i>Xudoykulov Azamat, Beshimova Aziza</i> MA'NAVIY BARKAMOL INSON TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI .....	140-144
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Abduganiyeva Djamila Rustamovna</i> MACHINE TRANSLATION POST-EDITING THROUGH A HERMENEUTIC LENS .....	145-151
<i>Murtazayeva Xadicha</i> INGLIZ VA O'ZBEK TIBBIY TERMINOLOGIYASINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI .....	152-155
<i>Несунбаева Саодатхан</i> ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕДАЧИ АМЕРИКАНСКИХ ДИАЛЕКТИЗМОВ И ПРОСТОРЕЧИЙ В РУССКИХ ПЕРЕВОДАХ "ТОМА СОЙЕРА" .....	156-160
<i>Axmedjanova Farida, Toirova Shohida</i> XX ASRDA AYOL OBRAZINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI .....	161-165
<i>O'rinova Shoxsanamxon Nosirjon qizi</i> TAHDID NUTQIY AKTLARI: LINGVOPRAGMATIK TAHLIL VA MENASIV KOMMUNIKATSIYA XUSUSIYATLARI .....	166-170
<b>12.00.00 – YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Salaev Nodirbek</i> PENITENSIAR TIZIM VA UNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O'RNI .....	171-178
<i>Турсунов Ойбек Батирович</i> МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СОТРУДНИЧЕСТВА ГОСУДАРСТВ РЕГИОНА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ .....	179-184
<i>Xakimova Inobatxon</i> XOTIN-QIZLAR HUQUQLARINING XALQARO HUQUQ DOIRASIDA SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI .....	185-191

<i>Мардонов Амиржон Шерзод угли</i> ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ПРИ ПРИМЕНЕНИИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СИСТЕМЕ БАНКОВСКОГО СКОРИНГА .....	192-202
<i>Jonuzoqova Yulduz Izzatulla qizi</i> AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI TRANSMILLIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA KONVENSSIONAL VA INSTITUTIONAL MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH .....	203-207
<i>Xolmo'minov Shavkat Jumaevich</i> EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI HUQUQIY TA'MINLASH SOHASIDAGI MUHIM TASHABBUSLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....	208-215
<i>Khudayberganova Nigina To'lqin qizi</i> THE NOTION AND CODIFICATION OF THE LAW ON SPECIAL MISSIONS IN INTERNATIONAL LAW .....	216-221
<i>Саидов Бобур Бахромжонович</i> МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО В ВОПРОСАХ ИНТЕРНЕТ-ЮРИСДИКЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ УНИФИКАЦИИ ПРАВОВЫХ НОРМ И ПЕРСПЕКТИВЫ УЧАСТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В ГЛОБАЛЬНЫХ МЕХАНИЗМАХ РЕГУЛИРОВАНИЯ ...	222-229
<i>Normurodova Behro'za Xolmo'minovna</i> RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASH VA TAHLIL QILISHDA INTERPOL VA EUROPOL TAJRIBASI: O'ZBEKISTON UCHUN AMALIY AHAMIYATI .....	230-236
<i>Qilichova Kamola Luqmonxon qizi</i> DINIY MAZMUNDAGI MATERIALLARNI QONUNGA XILOF RAVISHDA TAYYORLASH, SAQLASH, OLIB KIRISH VA TARQATISH JINOYATLARINING YURIDIK TARKIB BELGILARI .....	237-248
<i>Shagilov Pulatbek Koptleuovich</i> BEZORILIKNING VIRTUAL YUZI: HUQUQIY BAHOLASH VA JAVOBGARLIK MASALALARI .....	249-256
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Imomov Sirojiddin Ilxomovich</i> SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA KASBIY-PEDAGOGIK TA'MINOTINING AHAMIYATI .....	257-263
<i>Khayrova Madina Rasimovna</i> NATYURMORT JANRIDA ISHLAGAN RASSOMLAR ASARLARINING REKONSTRUKTIV TAHLILI .....	264-269
<i>Mirkasimova Zilola Alisherovna</i> MAKTABGACHA YOSHDA NUTQ RIVOJI BOSQICHLARI .....	270-273
<i>Xudaykulova Shaxlo Mamaniyozovna</i> AXLOQIY RIVOJLANISH VA NEYROPEDAGOGIK USULLARNING O'ZARO TA'SIRI .....	274-278
<i>Shakirova Dildora Abdumalikovna</i> NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI XORIJIY VA MILLIY TAJRIBA ASOSIDA BAHOLASH .....	279-285
<i>Djurayeva Nargis Narkulovna</i> TABIIY FANLAR DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTENSIV METODLARNING QO'LLANILISHI .....	286-290

*Baltayeva Ma'mura, Davletova Bikajon*

MEDIA LITERACY TEACHING METHODOLOGY ..... 291-294

**Received:** 05 May 2025  
**Accepted:** 15 May 2025  
**Published:** 30 May 2025

*Article / Original Paper*

## **STRATEGIC MANAGEMENT - THE BASIS OF COMPETITIVE ADVANTAGE**

**Rustamova Sayyora Khatamovna**

Senior Lecturer, Department of "Economics"  
Andijan State University,  
Doctor of Philosophy (PhD)

**Abstract.** This article discusses the competitive advantage of companies, the strategies they use during their life cycle. The literature on strategic management is analyzed, and through the research of scientists and the author, similar and different strategies of companies, their competitive advantages are presented. The criterion of loyalty and its maintenance among customers are discussed.

**Keywords:** strategy, strategic management, loyalty criterion, competitive advantage, differential strategy, customer proximity.

---

## **STRATEGIK BOSHQARUV-RAQOBAT USTUNLIGINING ASOSI**

**Rustamova Sayyora Xatamovna**

Andijon davlat universiteti  
"Iqtisodiyot" kafedrasida katta o'qituvchisi,  
I.f.f.d. (PhD)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kompaniyalarning raqobat ustunligi, hayotiylik davri davomida qo'llaydigan strategiyalari haqida fikrlar yuritiladi. Strategik boshqaruvga berilgan adabiyotlar tahlil qilinib, olimlarning va muallif izlanishlari orqali kompaniyalarning o'xshash va farqli strategiyalari, raqobatdagi ustunliklari haqida izlanishlar keltirilgan. Sodiqlik mezoni va uni xaridorlar orasida saqlab qolish haqida so'z ketgan.

**Kalit so'zlar:** strategiya, strategik boshqaruv, sodiqlik mezoni, raqobat ustunligi, differensial strategiya, mijoz yaqinligi.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N11>

**Kirish.** Korxonalar va tashkilotlar o'z hayotiylik davrini uzoqroq davom etishi uchun faoliyatini rejalashtirgan bo'lsada, rejani doimiy takomillashtirib, uni strategik ahamiyatini yana ham oshirib borishi hozirgi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Resurslarning cheklanganligi asnosidagi jamiyatimizdagi mavjud resurslardan oqilona foydalanib, bozorda raqobat sharoitida omon qolish uchun korxonalar rahbarlaridan strategik qarorlar qabul qilish va ularni amalga oshirish korxonaning uzoq istiqbolini belgilab beradi.

Dj.March menejerlarga xos va qaror qabul qilishga ta'sir ko'rsatuvchi ong chegarasi (diqqatning chegaralanishi, aqliy imkoniyatlarning chegarasi, o'z fikrini afzal bilish), siyosiy va tashkiliy chegaralanishni tushuntirib bergan. U tashkilotlarda qaror qabul qilish jarayoni va unda oqilonalikning chegaralanishi tushunchasini kiritgan.[1, 28-b] Kompaniyalarning nufuzini belgilab beruvchi omillar sirasiga kompaniya faoliyat yuritayotgan mamlakatlardagi siyosiy, iqtisodiy institutlarning o'rni bilan birgalikda, kompaniya rahbarlarining uzoq muddatni oldindan ko'ra olish qobiliyati ham muhim hisoblanadi. Korxonalar raqobatli

ustunlikka erishishi uchun ayni damdagi raqiblari bilan emas, yaqin kelajakda unga qaysi tarmoq va sohalar raqib bo'lishi mumkinligi haqida batafsil o'ylashi lozim. Chunki hozirgi transformatsiya va sun'iy intellektning rivojlanishi jarayonida mavjud kompaniyalar o'z vaqtida zamonga moslasha olmasalar, raqobat ummonida g'arq bo'lishi turgan gap.

Korxonaning kelajakdagi barqarorligini baholash uchun rivojlanish tendensiyasini (trendini) ifodalovchi kompleks integral ko'rsatkich ishlatiladi; chuqurroq tahlil qilish va zaxiralarni aniqlash uchun ko'rsatkichlarning kengaytirilgan tizimidan foydalaniladi. Shunday qilib, korxonaning kelajakdagi barqarorligini baholash — korxonada faoliyatining turli tomonlarini baholashni nazarda tutadi, buning ustiga, bunday baholash dinamiklikda va makonda amalga oshiriladi.[2]

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Strategiya so'zini qo'llash qadimgi yunonlarga borib taqaladi, uni harbiy ma'noda ham, biznes ma'nosida ham dastlab qadimgi yunonlar ishlatishgan. Biznes strategiyasi konsepsiyasiga oid ilk zamonaviy qarashlar 1947-yilda Jon Fon Neyman hamda Morgensternlarning o'yinlar nazariyasida tilga olingan. Keyingi davrda konsepsiyaning rivoj topishi va biznesda strategiya tushunchasiga berilgan ta'rifning sayqallanib borishiga P.Druker, A.Chandler, I.Ansoff, D.SHendel, J.Maknikols, J.Makkarti, H.Mintzberg va boshqalar ulkan hissa qo'shgan.[3]

I.Ansoff strategik boshqaruvning mohiyatini: “tashkilot maqsadlari va vazifalarining qo'yilishi, o'z maqsadlariga erishish imkoniyatini beruvchi va ichki imkoniyatlarga mos holda tashqi talablarga sezuvchanlikni ta'minlovchi tashkilot va tashqi muhit o'rtasidagi bir qator munosabatlarni qo'llab-quvatlash bilan bog'liq strategik boshqaruv bo'yicha faoliyat”[4] deb ta'riflagan. Bundan tashqari Ansoff korxonalarini strategiyasini “Ansoff matritsasi” orqali baholashga e'tibor qaratgan.

Maykl Porter kompaniyalarning uzoq muddatli strategiyasini raqobat ustunligi nazariyasi bilan izohlagan.

O.S. Vixanskiy strategik menejmentni “tashkilot asosini tashkil qiluvchi inson potensialiga tayanuvchi, ishlab chiqarish faoliyatini iste'molchilar talablariga yo'naltiruvchi, tashkilotdagi o'zgarishlarga sezuvchan va unga mos tarzda o'zgarishlarni amalga oshiruvchi, tashqi muhit talablariga javob bera oladigan va raqobat afzalliklariga erishish imkoniyatini beruvchi ... tashkilotni boshqarish usuli” [5, 63-b] deb ta'riflagan.

Ushbu maqolada strategik boshqaruv bo'yicha iqtisodchi tadqiqotchi olimlarning maqolalari o'rganilgan. Soha vakillarining fikrlarini mulohaza qilish asosida tizimli tahlil va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanilgan.

**Muhokama va natijalar.** Angliyada paxta tolasidan mato olish jarayonida foydalanilgan dastlabki charxpalak, bug' mashinasi kabilardan foydalanish orqali sanoat inqilobining yuzaga kelishi va bunday ixtirolardan samarali foydalanishga ishtiyoqmand tadbirkorlarga yangi g'oyalarini amalga oshirishga turtki bo'ldi. XIX asrda AQSH dunyoda boshqa mamlakatlarga nisbatan nafaqat siyosiy, balki innovatsiyalarni joriy qilish bo'yicha ilg'or mamlakat hisoblangan.

AQShning o'zida 1 093 ta, dunyo bo'yicha esa 1 500 ta patent olish bilan jahon rekordini o'rnatgan Edison [6] kabi ixtirochilar uchun ularni patentlarini boshqa insonlarga pullash maqsadida foydalanishni oldini olish uchun o'z bizneslarini yo'lga qo'yish orqali patentlaridan o'zlari foydalanishni yo'lga qo'yish maqbul yechim hisoblangan.

1818-yilda AQShda umumiy aktivlari 160 mln dollarni tashkil qilgan 338 ta bank ishlagan bo'lsa, 1914-yilga kelib banklar soni 27 864 taga, ularning umumiy aktivlari hajmi esa 27.3 mlrd dollarga yetadi.[7] O'z biznesini boshlashga mablag'i bo'lmagan amerikalik ixtirochilar uchun bu juda qulay imkoniyat bo'lishi bilan birgalikda AQShdagi banklar orasidagi kuchli raqobat ixtirochilar uchun past foizlarda kreditlar olish imkonini berdi. Ko'plab kichik biznesini yo'lga qo'yish istagidagi g'oyalari bor tadbirkorlarning kreditlardan maqsadli foydalanishi evaziga AQSH dunyoda sanoati rivojlangan yetakchi davlatdan biriga aylanishiga zamin yaratdi.

Amerikalik professor M.Stern o'zining "AQShdagi eng tezkor rivojlanuvchi kompaniyalar" deb nomlangan monografiyasida muvaffaqiyatli tadbirkorlarning quyidagi shaxsiy xislatlarini alohida ta'kidlab o'tadi:

1. ularda ko'ra bilish yoki orzu mavjud. Bu haqida ular har kuni eslab turadi;
2. o'z mahsuloti yoki xizmatiga ishonchning kuchliligi va sodiqlik;
3. ixtirochilik;
4. doimo vaqt yetishmasligi sababli ular sabrsiz va sezgir;
5. muvaffaqiyatga erishishga yo'naltirilgan faoliyatini bir necha yil oldin rejalashtiradilar;
6. hamma narsani qaytadan boshlashga qo'rqmaslik;
7. pul ular uchun asosiy va yagona harakat omili emas;
8. ular bozor o'zgarishini yaxshi payqay oladilar;
9. ularni qo'rqitish qiyin;
10. ular yolg'izlikka o'rganib qolishgan;
11. injiq va o'jar shaxslar;
12. xususiy biznesni amalga oshiradigan faoliyat texnologiyasi, buxgalter hisobi hamda moliyaviy tahlilni yaxshi biladigan yuqori malakali ta'assischilar guruhining mavjudligi[8].

Har qanday tarmoqda faoliyat yuritishi bilan korxonalar uchun yangi raqobatchilarning paydo bo'lish va tarmoqda mavjud raqobatchilar bilan kurashishi xavfi mavjud bo'ladi. Mavjud korxonalar o'z mijozlarini saqlab qolishi uchun o'z mahsulotlariga xaridorlar sodiqligiga erishishi zarur. Bunga erishish uchun korxonalar boshqa raqobatchilariga nisbatan mutlaq ustunlikka erishishga urinishi kerak. Sifat, qadoqlash va yetkazib berishda raqobatchi korxonalariga nisbatan differensial strategiyani qo'llash orqali o'z ustunliklariga erishishi mumkin bo'ladi. Kirib kelayotgan yangi korxonalar esa xaridorlarni raqobatchi korxonalariga sodiqligini yengish uchun katta texnologik, iqtisodiy investitsiyalar kiritishi lozim bo'ladi. Xaridorlar quyidagi hollarda nomdor korxonalar mahsulotlariga sodiq bo'lishadi:

- tovar yoki xizmatning sifati boshqa raqobatchilarga nisbatan yuqori bo'lganda;
- tovar yoki xizmatdan foydalanayotgan mijozlarning boshqa firma xizmati yoki mahsulotlarini o'zlarida sinab ko'rishga qo'rqishligi, ya'ni yangiliklarni qabul qilishga qo'rqishlik;
- mijozlarni yangi korxonalar xizmati va mahsulotlarini qo'llashda o'zi uchun yuzaga keladigan noqulayliklarga moslasha olmasligi;

Eng katta xizmat ko'rsatish sohasi banklarning xizmatlaridan uzoq muddat mobaynida foydalanishlariga qarab mijozlar quyidagi guruhlariga guruhlanadi, bunda bankka bo'lgan ishonch va sodiqlik eng muhim omil sanaladi:

1) «sodiqlik» darajasi yuqori bo'lgan mijozlar (bank xizmatlaridan foydalanish muddati uch yildan ko'p);

2) o'rtacha «sodiqlik» darajasiga ega mijozlar (bir yildan uch yilgacha bo'lgan davrda bank xizmatlaridan foydalanuvchilar);

3) «sodiqlik» darajasi o'rtacha darajadan past bo'lgan mijozlar (bank xizmatlaridan bir yilgacha bo'lgan davrda foydalanganlar);

4) «sodiqlik» darajasi past.[9]

Nomdor kompaniya bozorda o'z pozitsiyasini ushlab turishi uchun xaridorlarning sodiqligi mustahkamlashi zarur. Yangi kirib kelayotgan kompaniyalar raqib kompaniya mijozlarining sodiqlik mezonini sindirish yoki o'ziga og'dirish uchun katta investitsiya qilish orqali bozorda o'z o'rnini egallab olishi mumkin.

2023 yil 27-oktyabrdan boshlab O'zbekistonda mobil aloqa tarmoqlarida abonent raqamini ko'chirish xizmati (MNP) ishga tushirildi [10]. Abonentlar mobil aloqa operatorlarining xizmat ko'rsatish sifatiga qarab o'z raqamini saqlagan holda istalgan kompaniyani (hozirda GSM mobil operatorlari — Beeline, Mobi.uz, Ucell, Uzmobil, Humans abonentlari tomonidan taqdim etiladi) tanlashi mumkin.

MNP xizmati allaqachon Yevropa Ittifoqining barcha mamlakatlarida, Singapur, AQSH, Kanada va qo'shnilarimiz Qozog'iston, Rossiya, Ozarbayjonda ham mavjud. Chet el aloqa bozorining tahlillariga ko'ra, xizmat ishga tushganda so'ng dastlabki 1-2 yil muddat ichida ko'chirilgan raqamlar 5% ni tashkil qilishi mumkin.[11]

Juda ko'plab adabiyotlarda strategiyaga yondashishning keng tarqalgan 5 ta varianti mavjud bo'lib ular quyida keltirilgan:

1. Xarajatlar bo'yicha ilg'orlik strategiyasi.

2. Keng tabaqalashtirish strategiyasi.

3. Optimal xarajatlar strategiyasi.

4. Fokuslangan strategiya.

5. Ifodalangan strategiya yoki mahsulotni tabaqalashtirishga asoslangan bozor uyasi strategiyasi.

Biz quyida berilgan jadvalda dunyodagi eng yirik ikki kompaniyalar "IKEA" kompaniyasi va McDonald's ovqatlanish shoxobchasining biznes strategiyalarini taqqoslab, ular orasidagi o'xshash va farqli jihatlarini qanday strategiyalardan foydalanilganini tahlillar asosida bir joyga jamladik.

## 1-jadval.

**“IKEA” kompaniyasi va McDonald’s ovqatlanish shoxobchasining  
biznes strategiyasi [12]**

Strategiyalar	“IKEA” kompaniyasining biznes strategiyasi	McDonald’s ovqatlanish shoxobchasi
<b>Asosiy strategiya</b>	Mebelni yig’ilmagan holda sotish Oddiy qadoqdan foydalanish	Asosiy qoidalaridan biri MSOQ-“madaniyat, sifat, ozodalik, qulaylik” Ovqatlanib o’tirganlar atrofida doimo pol yuvib yoki derazalari artib yurayotganlar
<b>Joylashuv strategiyasi</b>	shahar chetida do’konlar ochish	Odamlar gavjum joylar, chorrahalarda, universitetlar yaqiniga restoranlar qurishadi
<b>Xaridni ko’paytirishga urinishda vaqtdan foydalanish strategiyasi</b>	xarid vaqtini ortga surish  do’konni labirintga aylantirish  mijozlarga xarid ro’yxatini tuzib olishni taklif qilish	xaridor kartoshka, ichimlik, muzqaymoq yoki qahvaga buyurtma berganida (60 soniyada buyurtma berish lozim) uning miqdorini aytmasa, eng katta porsiya olib kelinadi. Bolalar uchun o’yin maydonchalari, arzon narxlarda tug’ilgan kunlar o’tkazish, ota-onalari bilan navbatda turgan kichkintoylarga sovg’alar berish
<b>Xaridni ko’paytirishga urinishda joylashtirish strategiyasi</b>	qimmat buyumlar oldida kichik buyumlarni joylashtirish ko’rgazma zalida derazalarning yo’qligi polga ko’rsatkich belgilar chizib qo’yish	Qattiq stullar va noqulay divanlar  Tezkor musiqa  Stollar orasidagi tor yo’laklar
<b>Sotuv hajmini ko’paytirishda sotuvchilik madaniyati</b>	do’konda qahvaxonaning mavjudligi dolchinli bulochka	sotuvchilar hech qachon inkor qo’shimchasini ishlatmaydilar
<b>Shaxsning hurmatga doir ehtiyojlarini hisobga olinishi</b>	hamma joyda ko’zgular qo’yilishi	Erkaklarni e’tiborini jalb qilmasliklari uchun ishchi ayollarni erkakcha kiyintirib qo’yish.

Bundan tashqari mijoz yaqinligi strategiyasini “Ritz-Carlton” mehmonxonasida ham ko’rishimiz mumkin. The Ritz-Carlton — “lyuks” toifasidagi mehmonxonalar xalqaro tarmog’i. Tarmoq dunyodagi eng yirik Marriott International mehmonxonalar xoldingining shu’ba korxonasi bo’lgan The Ritz-Carlton Hotel Company kompaniyasiga tegishli. Tarmoqning shtab-kvartirasi Merilend shtatida (AQSh) joylashgan. Kompaniya dunyoning yirik shaharlarida 90 dan ortiq mehmonxonalarni boshqaradi.[13]

Alohida mijozlar ehtiyojini aniqlashgandan so’ng, “Ritz- Carlton” mehmonxonasi xodimlari mehmonxonaning kir yuvish xizmati mehmon jo’nab ketishidan oldin uning kiyimidagi dog’ni ketkiza olmasa, mehmonxona menejeri mehmonning uyiga borib, shaxsan kostyumning narxidagi pulni qaytarib beradi. “Ritz-Carlton” menejerining so’zlariga ko’ra, agar bu tarmoq biror bir mehmonga qarashli uy hayvonini suratini olsa, rasmni nusxani ramkaga solib, qachondir o’sha mehmon tashrif buradigan bo’lsa, rasmni uning xonasiga osib qo’yildi. Ana shunday mijozlarga xizmat ko’rsatish borasidagi qahramonliklar natijasida, jo’nab ketayotgan mehmonlarning 95 foizi bu mehmonxonada bo’lganliklarini chinakam esda qolarli tajriba deb bayon qiladi. “Ritz-Carlton” 90 foizdan ortiq mehmoni yana qaytib keladi.[14] Shu

kabi xatti-harakatlar mijozlarni kompaniyalarga sodiqligini oshiradi. Uyidagidek yoki yaqin insonidek g'amxo'rlik qilish mijozlarga yaqinlik va iliqlik hissini beradi.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida quyidagilarni aytish mumkin:

- kompaniyalar raqobat ustunligiga erishish uchun tarmoqdagi va hududdagi o'ziga xoslikni hisobga olib, firma strategiyasini tuzishi lozim;
- mijozlardagi sodiqlikni saqlab qolishi uchun o'z mahsulot va xizmatlariga katta investitsiya kiritish;
- korxonalar barcha faoliyatiga innovatsiyalar kiritib turish uning kelajakda kompleks samaradorligini ta'minlaydi.

#### **Adabiyotlar/Literatura/References:**

1. А.Н.Холиқулов, В.Бердиқулов, К.М.Ибодов. “Таққослама менежмент” ўқув қўлланма Тошкент “Иқтисод-молия” 2021й 28-б
2. Nasimov B.V. Korxonalar faoliyatini strategik boshqarish samaradorligi. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2019 yil
3. Э.Абдусатторов. Стратегик менежмент концепциясининг назарий-методологик асослари ва тарихий эволюцияси. SYNERGY: JOURNAL OF ETHICS AND GOVERNANCE Volume: 02 Issue: 12 | December- 2022 ISSN: 2181-2616
4. Ансофф И. Стратегическое управление: Сокр. пер. с англ. // Науч. ред. и авт. предисл. Л.И. Евенко. – М.: Экономика, 1989
5. Виханский О.С. Стратегический менеджмент. – М.: Юрист, 2002 63 с
6. Ажамўғли Дарон, Робинсон Жеймс А. “Мамлакатлар аназули сабаблари: қудрат, фаравонлик ва камбағаллик манбалари” инглиз тилидан Сиротуллохон Муҳаммадсолиев таржимаси. Тошкент: “Ofset-print” МЧЖ, “Nihol” nashriyoti, 2021. 676 бет
7. Ажамўғли Дарон, Робинсон Жеймс А. “Мамлакатлар аназули сабаблари: қудрат, фаравонлик ва камбағаллик манбалари” инглиз тилидан Сиротуллохон Муҳаммадсолиев таржимаси. Тошкент: “Ofset-print” МЧЖ, “Nihol” nashriyoti, 2021. 676 бет
8. А.Х. Холов. Ўзбекистон ёшларида тадбиркорлик ижтимоий масъулиятини ошириш. Ўқув қўлланма/ Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Фан ва технологияларни ривожлантиришни мувофиқлаштириш қўмитаси. –Т.: Akademiya. 2014 йил. 282 б.
9. О.М. Пардаев, А.Я. Абдуллаев. Банк фаолиятининг молиявий барқарорлиги ва ривожланиш истиқболларини баҳолаш. [Матн]: дарслик / Самарқанд иқтисодий ва сервис институти – Самарқанд.: “STEP-SEL” МЧЖ. Нашриёти, 2023 – 344 бет
10. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/10/27/mnp/>
11. <https://kun.uz/kr/news/2023/10/18/raqamni-saqlagan-holda-mobil-operatorni-ozgartirish-u-qanday-ishlaydi>
12. Kun.uz ma'lumotlari va N.O. Rahmatullayeva. Strategik menejment.-T.: «Fan va texnologiya», 2019 o'quv qo'llanmasi asosida muallif tomonidan tayyorlandi
13. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/02/20/ritz-carlton-tashkent/>
14. N.O. Rahmatullayeva. Strategik menejment.-T.: «Fan va texnologiya», 2019 o'quv qo'llanma

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 5/4 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).